

MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISHNING XORIJ VA ROSSIYA TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

*Ikromova Sitora Akbarovna
Osiyo xalqaro universiteti assistenti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadqiqotimiz jarayonida mafkuraviy immunitet shakllantirishning xorij va Rossiya tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishi, ulardagi fikr va mulohazalarning dolzarbliji ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Psixologik himoya, "Men-obrazi", "himoya mexanizmlari", psichoanaliz.

ИЗУЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА ЗАРУБЕЖНЫМИ И РОССИЙСКИМИ ИССЛЕДОВАТЕЛЬЯМИ

Аннотация: В данной статье в ходе нашего исследования научно обосновано изучение формирования идеологического иммунитета зарубежными и российскими исследователями, актуальность их мнений и соображений.

Ключевые слова: Психологическая защита, «Я-образ», «защитные механизмы», психоанализ.

STUDY OF THE FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY BY FOREIGN AND RUSSIAN RESEARCHERS

Abstract: In this article, in the course of our research, the study of the formation of ideological immunity by foreign and Russian researchers, the relevance of their opinions and considerations is scientifically substantiated.

Key words: Psychological protection, «I-image», «defense mechanisms», psychoanalysis.

Ko'plab tadqiqotlar shaxsning psixologik himoya mexanizmlariga quyidagicha ta'rif berishimizni taqozo qiladi.

Psixologik himoya – bu shaxsnı salbiy kechinmalardan himoya qilishga yo'naltirilgan anglanmagan psixik jarayondir.

Endi shaxslarda psixologik himoya mexanizmlarining shakllanish qonuniyatları va shu asosda yuqorida tug'ilgan savollarga javob topib boramiz. R.Plutchik psixologik himoya mexanizmiga ob'ektiv vaziyatning inson tomonidan real tarzda idrok etilishi natijasida vujudga keluvchi ziddiyatlari, tashvishli holatlarni hissiy-emotsional tarzda yumshatish, ruhiy zo'riqishni pasaytirish sifatida qaraydi. Bu o'rinda ikkita bir-biriga qarama-qarshi fikr maydonga keladi. Psixologik himoya mexanizmi birinchi holatda insonning o'z-o'zini rivojlantirishiga, o'z-o'zini qayta qurishiga monelik ko'rsatadi, sababki, "Men-obrazi"ni xavfdan saqlash uchun inson xotirjamlikka beriladi, tashqi shart-sharoitga, vaziyatga moslashishga undaydi; ikkinchi holatda esa inson ichki ruhiy va tashqi to'siqlarni, ziddiyatlarni yengishga, uni bartaraf etishga chog'lanadi. Bu o'rinda "Men obrazi"ni rivojlantirish maqsadida kuchli emotsiyonal zo'riqish holatini boshdan kechirishga rozi bo'ladi, u o'z ustida ishlaydi, muammoning yechimini izlaydi.

Shaxs psixikasida ilk bolalik davridan boshlab umrining oxiriga qadar "psixologik himoya", "psixikaning himoya mexanizmlari" deb ataluvchi mexanizmlar shakllanadi va rivojlanib boradi. Bu mexanizmlar shaxs ongini turli salbiy emotsiyonal kechinmalardan va persepsiyalardan, o'zi uchun notshg'ri deb hisoblagan fikrlardan asraydi. Aslida bu yerda fikr turli moslashish jarayonlarida shaxs o'zi tomonidan egallaydigan xususiyatlar va sifatlar haqida ketmoqda.

"Psixologik himoya", "himoya mexanizmlari" atamalari Z.Freyd tomonidan fanga kiritilganidan so'ng, bu tadqiqotlar yanada katta shiddat va qiziqish bilan interpretatsiyalanib, transformatsiyalanib va modernizatsiyalanib kelingan. Shuningdek, psichoanalitik yo'naliishlarning turli davr tadqiqotlari va psixoterapevt namoyondalari tomonidan hamda boshqa psixologik yo'naliishlar – ekzistensional, psixologiya, insonparvarlik psixologiyasi, geshtalt psixologiya va boshqalarining izlanishlarida ko'rish mumkin.

"Himoya" va "kurashish" psixikaning maxsus mexanizmlari unga yoqimsiz tuyg'u va xotiralardan xalos bo'lishga yordam beradi. Uлarni ongdan tashqarida tutadi, ya'ni xavotir va stressni ushlab turadi hamda ongsiz kompensatsiyani bajaradi.

Rus psixologiyasida himoya mexanizmlari fenomenologiyasi ko‘p vaqt mobaynida umumiy tahlil predmeti bo‘limgan. Buning asosiy sababi 20-yillarning oxiri 30-yillarning boshida katta tortishuvlarga sabab bo‘lib, psixoanalizning likvidatsiya qilinishidir. Rus psixologiya maktabining rivojlanish mantig‘i ma’lum ma’noda psixologik himoya nazariyalari bilan kesishuvchi nazariyalar paydo bo‘ldi. Bunday nazariyalar qatoriga D.B.Uznadzening [Узнадзе Д.Б., Экспериментальные основы психологии установки. 1949, М., 1966. -С. 248, 289-292.] ustanovkalar nazariyasini va V.N.Myasishevning [Мясищев В.Н., Психотерапевтическая энциклопедия Под. ред.Б.Д. Карвасарского. - Изд. 2-е, доп. и перепраб..СПб.: Питер, 2000.-394 с.] munosabatlar nazariyasini kiritish mumkin. Avval rus psixologiyasida psixologik himoya tarqoq tarzda o‘rganilgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar psixoanalizning qabul qilinmaganligi sabablarining birinchisiga g‘oyaviy tartib omillarini qo‘yadilar. G.L.Ilinning ta’kidlashicha, “Freydning ijtimoiy pessimizm boshqarilayotgan jamiyatga ishonmasligi odamlar xulq-atvorini shakllantirish imkoniyati, insonlarni qayta tarbiyalashdan iborat”. Bu pozitsiya zamonaviy dunyo talablari bilan qarama-qarshi boradi hamda unda jamiyat va insonlarni boshqarishning hal qilish vazifasi nafaqat talab qilinar, balki hayotiy zarur edi.

Himoya mexanizmi – bu xatar yoki xavotir manbaini buzib ko‘rish rad etish yoki qochish mumkin bo‘lgan har qanday jarayon. Himoya mexanizmlari, shuningdek, bizning “Men”ligimizning ideallashtirilgan obrazini tartibga solish hamda o‘zimizni qabul qilishimiz qulay bo‘lishi uchun yordam beradi. Zigmund Freyd birinchilardan bo‘lib, himoyaning ko‘p turlarini identifikatsiyalangan va bu mexanizmlar ongsiz tarzda harakat qilishini taxmin qilgan.

Tadqiqotchi Yu.G. Noskovning so‘ziga ko‘ra, axborotlar orqali inson ongini zabit etish o‘z-o‘zidan ularni o‘z aqidalaridan, e’tiqodidan ayirish ham sanaladi. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, destruktiv axborotlariga nisbatan o‘smirlarda axborot xavfsizligiga ehtiyoj, avvalo, inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning xavfsizligi, millat va milliy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta’sir etuvchi buzg‘unchi va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi.

Qolaversa, axborot xavfsizligiga rioya qilinmasa, uning ta’sirchan choralar ko‘rilmasa, destruktiv g‘oyalar yoshlar ongiga va xulq-atvoriga o‘ziga xos salbiy ta’sir etishi ehtimoldan xoli emasligi barchamizga ma’lum.

Masala yuzasidan tadqiqotchi V.N. Pankratovning xulosalariga ko‘ra, tezkor axborotlashgan jamiyatda axborotlar orqali bugungi zamonga mos ruhiy ta’sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotgani shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda ta’sir o‘tkazadi. Bunda omma fikrini qay darajada shakllanganligi, siyosiy ongi va huquqiy bilim saviyasi va ma’naviy-ma’rifiy darajasi katta rol o‘ynaydi.

Taraqqiyot sari yo‘l esa, tig‘iz axborotlar bozoridan umummilliyl manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotnigina tanlab olishda namoyon bo‘ladi. Axborot xavfsizligi bu avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali uni o‘z aqidalaridan, e’tiqodidan ayiradigan destruktiv axborotlardan asrashdir. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, axborot xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita yoshlar ongiga ta’sir etuvchi destruktiv axborotlar mavjudligidan kelib chiqadi.

I.V. Yavchunovskaya ta’kidicha, axborotlashgan jamiyat bu-kishilik jamiyatni rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanyotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informasion-texnologiyalardan oqilona foydalananishga asoslangan sifatiy tizimni tavsiflovchi tushunchadir.

Mashhur siyosatshunos, faylasuf olim P. Byukenen o‘zining “G‘arbning halokati” publisistika sarida shunday yozadi: “...axborot-media madaniyatlararo to‘qnashuvda o‘ziga xos musobaqa quroli, yoshlar ongi va qalbini zabit etishning eng zo‘r va ishonchli vositasiga aylandi”. Shuning barobirida destruktiv axborotlar ham inosoniyat xalokatining asosi bo‘lishi tabiidir deb takidlaydi. Demak axborotni foydali tomonlari bilan birga uning salbiy jihatlari uning destruktivligini izohlaydi.

Bizningcha, destruktiv axborotlarni ilmiy tasniflashda tarixiylik va mantiqiylik usulidan foydalanilsa, maqsadga muvofiq. Xususan, bunday g‘oya va mafkuralarni sinflarga ajratish uchun asos sifatida ta’sir nishonlari, ya’ni buzg‘unchilik ob’ekti olinadigan bo‘lsa, quyidagi guruuhlар ajratilishi maqsadga muvofiq:

1. Jamiyat va shaxs ruhiyatiga tahdid soluvchi g‘oyalar (axloqsizlik, egotsentrizm, kosmopolitizm, ludomaniya va h.k.).

2. Iriqiy, diniy, etnik, milliy tenglikka hamda xalqning ozod yashash huquqiga qarshiligi g‘oyalar (rasizm, shovinizm, aggressiv millatchilik, panislomizm, panarabizm va shu kabilalar);

3. Davlat yoki millatning ijtimoiy, hududiy, ma'naviy yaxlitligiga qarshi qaratilgan g'oyalar (separatism, sinfiy kurash, mahalliy chilik, aqidaparastlik va boshqalar);

4. Davlatning suvereniteti, ozodligi va erkin yashash huquqiga qarshi qaratilgan g'oya va mafkuralar (noagressiv bosqinchilik, tajovuzkorlik, kolonializm, mustabidchilik, neokolonializm, terrorizm, diniy ekstremizm va h.k.);

Yuqoridagi tasnif, garchi mukammal bo'lmasada, buzg'unchi, yovuz mafkura va g'oyalarni ma'lum bir asosda guruhlarga ajratish imkonini beradi.

Demak, mazkur ilmiy mulohazalarni umumlashtiradigan bo'lsak, xorij psixologlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalarda shaxs psixologik apparatining mazmun-mohiyati, tuzilishi, turlari, funksiya va tamoyillari bat afsil yoritib berilgan. Bu bilimlar bizga o'smirda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarini tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa. Olib borilgan nazariy-ilmiy tahlillar mavzu doirasidagi muammolarni, xususan, o'smirarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini nazariy tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlarning bugungi kundagi taqchilligi va tizimlashtirilmaganligi hamda shu bilan birga dolzarbligini ko'rsatdi va quyidagi ilmiy xulosalarni yuzaga keltirdi.

O'smirarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganishga qaratilgan nazariy-ilmiy manbalarni tadqiq etish destruktiv axborot va mafkuraviy immunitet tushunchasining tarkibiy qismini aniqlash va o'smirlarni turli xil destruktiv axborotlar ta'sirdan saqlash haqida bat afsilroq ilmiy mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat o'smirarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlarini jonlantirishga hissa qo'shadi.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili, bugungi kunda muhim bo'lgan destruktiv axborotlar va uni oldini olishdagi mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlarida uning psixologik omillarini empirik jihatdan o'rganish muqarrarligini ko'rsatdi. Buning uchun esa, eng avvalo destruktiv axborotlar va mafkuraviy immunitet tizimining tarkibiy qismlari bilan o'smir shaxsning psixologik xususiyatlarini aloqasini o'rganish talab qilinadi. Ayni paytda, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda e'lon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

Мясищев В.Н, Психотерапевтическая энциклопедия. Под. ред.Б.Д. Карвасарского. - Изд. 2-е, доп. и перераб..СПб.: Питер, 2000.-.394 с.

Узнадзе Д.Б, Экспериментальные основы психологии установки. 1949, М., 1966. -С. 248, 289-292.